

**REPRODUKTIV SALOMATLIKNI SAQLASHDA OLIB
BORILAYOTGAN TADBIR TAHLILI**

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Termiz filiali

Mikrobiologiya, jamoat salomatligi, gigiyena va

menejment kafedrası assistenti

Abdumuratova Zarina Shokir qizi

(zarinaabdumuratova0104@gmail.com)

Xudoyberdiyeva Atifa Abdulvaxob qizi

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Termiz filiali 2-son Davolash

fakulteti talabasi

Annotatsiya: Reproktiv salomatlik – bu reprovktiv tizimdagi kasalliklarni (bepushtlik, turli nuqsonlar, JYOYUK, rak va rak oldi kasalliklari va h.k.) bartaraf etib, sog‘lom bola tug‘ilishiga er-hotin juftliklarni tayyorlabgina qolmay, balki tug‘ilgan zurriyotni jismonan baquvvat, aqlan zukko, ijtimoiy barkamol avlod etib yetkazishga zamin yaratishdir. Reproktiv huquq –ya’ni barcha er-hotin juftliklarni bolalar soni,ular orasidagi oraliq, ularning tug‘ilish vaqti, kontratsepsiya vositalardan foydalanish, bolani ko‘krak suti bilan boqish haqida erkin hamda to‘liq mas’uliyat hissi bilan qaror qabul qilish xamda ma’lumot va vositalarga ega bo‘lishlari shart.

Kalit so‘zlar: Reproktiv salomatlik, kontrasepsiya, reprovktiv xizmat.

Tadqiqotning maqsadi: Surxondaryo viloyatida aholi tug‘ish yoshidagi ayollar reprovktiv salomatligini saqlashda 2012-2023 yillar davomida kontratsepsiya vositalarining realizatsiyasi dinamikasini o‘rganish;

-viloyatda tug‘ish yoshidagi ayollarga reprovktiv xizmat sifatini yaxshilash va talab darajasida yangi bosqichga ko‘tarish;

-sog‘liqni saqlash tasarrufidagi birlamchi tibbiy sanitariya hamda

tugʻruqxona muassasalaridagi reproduktiv soha yoʻnalishi mutaxassislariga, oʻrta maxsus bilim yurti doyalik guruhi hamda Oliy taʼlim muassasalari klinik ordinatura talabalariga kontratsepsiya vositalari haqida eng zamonaviy maʼlumotlarni yetkazish;

-talabalarga istalmagan homiladorlikni oldini olish maqsadida tibbiyotda qoʻllaniladigan terminologiyalar bilan tanishtirish;

-kontratsepsiya vositalaridan unumli foydalanishning eng zamonaviy usullarini tushuntirish;

-talabalar va reproduktiv soha yoʻnalishidagi yosh mutaxassislarga oilani rejalashtirish va kontratsepsiya vositalaridan foydalanish, maslahat olib borish nazariy asoslarini oʻrgatish;

Atamalar: tugʻish yoshidagi ayollar (TYOA), Viloyat aholi reproduktiv salomatlik markazi (VARSM), Respublika aholi reproduktiv salomatlik markazi (RARSM), bachadon ichi vositasi (BIV), jinsiy yoʻl orqali yuqadigan kasalliklar (JYOYUK), odam immuntanqisligi virusi (OIV), odam immun tanqisligi sindromi (OITS)

Materiallar va tahliliy oʻrganishlar: Surxondaryo viloyati aholi reproduktiv salomatlik markazi (VARSM)ga 2012-2023 yillar davomida Respublika aholi reproduktiv salomatlik markazidan olib kelingan kontratsepsiya vositalari (KV) taʼminoti va realizatsiyasi dinamikada oʻrganildi.

Hozirgi kunda oilani rejalashtirish va istalmagan homiladorlikning oldini olish aholiga reproduktiv xizmat koʻrsatishning eng muammoli masalalaridan biri hisoblanadi. Aholi demografik koʻrsatkichlarining oʻsib borishi bilan bogʻliq ravishda tugʻilish va oʻlim holatlarini kamaytirish, tugʻish yoshidagi ayollar kasalliklari va nogironligi, erta va kech yoshdagi ayollar oʻrtasidagi tugʻruqlar, abortlardan keyingi ginekologik kasalliklar, istalmagan homiladorlikning oldini olish maqsadida kontratsepsiya vositalaridan (KV) maqsadli foydalanishni talab etadi.

Kontratsepsiya usullarini tanlash aholiga mavjud dalillar asosida xizmat koʻrsatish quyidagilarga erishish imkonini beradi.

-istalmagan homiladorlikni kamaytirish orqali xotin-qizlar salomatligini ta'minlash.

-onalar va bolalar o'limi ko'rsatkichlarni pasaytirish

- o'smir qizlar o'rtasida homiladorlik sonini kamaytirish

-JYOYUK va OIV-infeksiyalarining oldini olish

-oilalar va yoshlarga sog'lom oila qurish maqsadida KV ning xavfsiz va samarali usullarini erkin tanlash huquqi

-barcha odamlar, shu jumladan yoshlar, OITS bilan yashovchilar va imkoniyati cheklanganlarga ulardan keng foydalanish usullarini ta'minlash.

Asosiy dalillar:

- Tahlillarga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlardagi 214 million nafar xotin qizlar homiladorlik vujudga kelishini kechiktirish yoki istisno qilishni istagan bo'lar edi, ammo kontratsepsiyaning biron bir usulidan foydalanmaydi.

- Oilani rejalashtirishning ayrim usullari, masalan prezervativlar OIV va jinsiy yo'l bilan yuqadigan boshqa infeksiyalar (JYYUI) yuqishining oldini olishga yordam beradi.

- Oilani rejalashtirish yoki kontratsepsiya vositalari abortga, ayniqsa, xavfli abortga bo'lgan ehtiyojning kamayishiga xizmat qiladi.

- Oilani rejalashtirish odamlarning o'z farzandlari sonini va ularning tug'rug'i orasidagi muddatni belgilashga bo'lgan huquqini mustaxkamlaydi.

- Istalmagan homiladorlikdan saqlash orqali oilani rejalashtirish yoki kontratsepsiya usullari onalar va bolalar o'limi holatlarining oldini oladi.

Bunday turdagi xizmatlarning mustaxkamlanishi va xotin qizlar hamda yosh oilalar uchun istalgan kontratsepsiya usullaridan foydalanish imkoniyatining ta'minlanishi ularning farovonligi hamda mustaqilligiga erishish, shuningdek, alohida jamoalarning salomatligini rivojlantirish uchun ham nihoyatda muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Z.Sh.Abdumuratova/’ВЛИЯНИЕ ГИГИЕНЫ ДЕТЕЙ И ПОДРОСТКОВ НА ИХ ЗДОРОВЫЙ ОБРАЗ ЖИЗНИ’
<https://worldjournal.ru/index.php/ajmws/index>American Journal of Modern World Sciences 2024 Vol 1 Issue 3 177-185.Impact faktor: 8.3 (Researchbib)
- 2..Z.Sh.Abdumuratova/ Qizlar va ayollar o‘rtasida olib borilayotgan reproduktiv salomatlik tadbirlari tahlili. issue vol. 36 no. 4 (2024): tadqiqotlar jahon ilmiy-metodik jurnali | 36-son | 4-qism. -185–188., 2024-yil. retrieved from<http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/275>
- 3.Z.Sh.Abdumuratova “Sog‘lom turmush tarzining asosiy tamoyillari”. issue vol. 19 no. 5 (2024): ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi| 19-son | 5-to'plam. -ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 19(5), 137-139. retrieved <http://web-journal.ru/index.php/ilmiy/article/view/5400>
- [4.](#) Zareba, P., et al. (2013). "The impact of lifestyle and dietary factors on male fertility." *Asian Journal of Andrology*.
- [5.](#) World Health Organization. "Reproductive Health." WHO.int, 2023.